

TAFAKKUR ZIYOSI

Tafakkur ziyosi 3/2021
ilmiy uslubiy jurnal



MUNDARIJA

TAHRIRIYAT MINBARI

Sh.S.Sharipov, G'.O'.Qodirov Xirsh indeksi ilmiy faoliyat natijadorligi mezonini sifatida	3
S.I.Nazarqosimov Yangi O'zbekistonda modernizatsiya va liberallashtirish jarayonlari dinamikasi	6
U.Qosimov G.To'lisheva Istiqbol va adabiy-estetik tafakkur Mustaqillikning 30 yilligiga	8

TAQVIM:

Sh.Jo'rayev, M.Sobirova Erkin Vohidov iste'dodining serqirraligi	11
M.Qo'chqorova, N.Qiryigitova Ustoz adib saboqlari	14

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Sh.Abduraimov Integrativ yondashuv asosida kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish	17
A.Sh.Zaripova Nofilologik ta'lim muassasalarida zamonaviy metodlar asosida chet tilini o'qitishning ahamiyati	20
J.D.Avazov Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish - bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish omili	22
N.F.Haitova Geymifikatsiya ta'lim muhitini tashkil etuvchi texnologiya sifatida	25
R.Umarov, N.R.Umarova Bolaning shakllanishida ijtimoiy muhit va tarbiyaning o'rni	27
Sh.Buranova Oila, mahalla, maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligida bola ta'lim-tarbiyasining uzviyligini ta'minlash	29
G'.Q.Hakimov Oliy ta'lim sifatini oshirishda baholash modellarining qo'llanilishi	31
S.A.Rasulov Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari faoliyatini monitoring qilish konsepsiyasi va uning mohiyati	35
J.B.Ergashev, S.A.Usarov Dars jarayonlarini tashkil qilishda muammoli vaziyatlar tizimini yaratish qoidalari	38
A.J.Usmonov O'quvchilarni kasb - hunarga maqsadli yo'naltirishda hududiy imkoniyatlar tahlili	40

AMALIY FANLAR

J.Q.Axmedov Kurashchilarning musobaqa oldi ruhiy holati va texnik-taktik mahorat darajasining aloqadorligi	43
--	----

IJTIMOY FANLAR

A.Saitqosimov, F.Aqchayev Jahon hamjamiyatida yangi O'zbekiston	45
B.E.Toshboyev Milliy o'zlikni anglashning millat hayotidagi o'rni	47
A.Hotamov Tushunish va tushuntirish muhim falsafiy-metodologik muammo sifatida	49
S.A.Abdvohidov Jadidchilik ta'limotida ilm-ma'rifat taraqqiyot va farovonlik omili ekanligi	54
M.V.Axmetjanova Yangi davr o'zbek teatri	56
L.N.Djuraev Iqtisodiy madaniyatning strukturaviy-funksional xarakteri: asosiy yondashuvlar	59
I.B.Siddiqov Islomiy ta'limotlarda ilm haqidagi qarashlar	61
G'.G'affarova Konstruktivizm: falsafiy tahlil	64
R.B.Yarmatov, G.B.Sher taylakova Bo'lajak tarix o'qituvchilarining didaktik madaniyatini rivojlantirish	66
F.G'.Bozarova Immanuel Kant qarashlariga musulmon sharqi falsafasining ta'siri	68

FILOLOGIYA FANLARI

S.A.Karimov, V.Sultonova Til boyligini o'rganish muammolari (Abdulla Qahhor asarlari misolida)	70
A.J.Tangirov Badiiy asarda tipiklashtirish masalasi yoxud Varaxsha tarixining badiiy talqini	74
I.Yoqubov, M.Xidirova Mustaqillik davri o'zbek romanlarida sintetizm va uning etik-estetik zamini	76
X.Xolmurodov Alisher Navoiy lirikasida "Vomiy va Uzro" obrazlari talqini	79
M.A.Xalova She'riyatda ayol ruhiyati tasviri	81
Sh.I.Botirova Adabiy ta'limda integratsiya va klaster munosabati	83
A.L.Kenjaev Художественное своеобразие эпистолярной поэзии первой четверти XX века в русской литературе	87
Y.Abdulhakimova Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliyning "Layli va Majnun" dostonlaridagi Layli obrazining qiyosiy tahlili	90
D.G'.Ochilov Frazologik sinonimlarning grammatik tahlili	92
F.Jumayeva Juft so'zlarning semantik qurilishidagi paradigmatik munosabatlar tadqiqi	94

TABIY VA ANIQ FANLAR

Z.U.Ishmanova Pedagogika oliy o'quv yurti talabarlari uchun analitik kimyo fanidan elektron ta'lim muhitini yaratish samaradorligi	98
--	----

YOSH TADQIQOTCHILAR

A.B.Musoyeva Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining mahoratini oshirishda umumiy va kommunikativ kompetensiyalarning ahamiyati	101
F.E.Sattorova Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning til kompetensiyalarini rivojlantirish metodlari	104
G'.G'.Rashidova Ijtimoiy-madaniy kompetentlikni aniqlash yo'llari	107
Sh.S.Axmedova Omon Matjonning tarixiy qahramon yaratish mahorati	110
A.X.Hayitov Talaba - yoshlar bo'sh vaqtdan foydalanish madaniyati	112
D.N.Sulaymanova O'zbek va ingliz tillarida qo'shma gaplar mavzusini qiyosiy o'rganish	115
A.A.Qarshiyev O'quvchilarning axborot kompetentligini rivojlantirishning metodik jihatlari	117
D.Qushmurodova A.Mahmatov. Erkin Vohidovning so'z san'atkorligi	121
O.B.Rahmatov, S.N.Normuhammedov, F.Isaxonova Maktab ta'limidagi islohotlar milliy yuksalish omili sifatida	124
H.B.Tuxtasinova Перевод агиотерминов в исследованиях ученых	127

JAHON HAMJAMIYATIDA YANGI O'ZBEKISTON

Akbar Saitqosimov – f.f.d., professor v.b. Jizzax davlat pedagogika instituti
Farrux Aqchayev – t.f.b.f.d.(PhD), dotsent v.b. Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonning bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, xalqaro maydondagi obro'-e'tibori, mintaqaviy va xalqaro masalalarda roli va ahamiyati oshib borayotganligi yoritilgan.

Аннотация: В этой статье охватывается широкое признание Нового Узбекистана мировым сообществом, растущие репутации в международном сообществе, региональных и международных отношениях.

Abstract: This article covers widespread recognition of the new Uzbekistan by the world community, growing reputation in the international community, regional and international relations.

Kalit so'zlar. Yangi O'zbekiston, Markaziy Osiy, jahon, jahon hamjamiyati, xalqaro aloqalar, mintaqa, milliy manfaatlar, tashqi siyosat, xavfsizlik, barqarorlik.

Ключевые слова. Новый Узбекистан, Центральная Азия, мир, мировое сообщество, международные отношения, регион, национальные интересы, внешняя политика, безопасность, стабильность.

Keywords. New Uzbekistan, Central Asia, world, world Community, international relations, region, national interests, foreign policy, security, stability

O'zbekiston bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, uning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori, mintaqaviy va xalqaro masalalarda roli va ahamiyati kundan kunga mustahkamlanib bormoqda. Davlatimiz tomonidan har tomonlama puxta o'ylangan, milliy manfaatlariga asoslangan va o'zaro manfaatli tashqi siyosat olib borilmoqda. O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan bugungi xalqaro-siyosiy voqealiklar zamirida faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosat olib borish hamda zamonaviy xalqaro voqeikka o'z vaqtida va adekvat javob choralari orqali yechishni inobatga olgan holda qurilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida belgilab berilganidek, mamlakatimizning chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'nalishlari bo'lgan, davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatidagi o'zni va rolini oshirish, rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetukishi, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatining normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish hamda davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish masalalarini hal etish borasidagi islohotlar izchillik bilan amalga oshirilib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosatining asosiy maqsadlari sifatida, davlat mustaqilligi va suverenitetini yanada mustahkamlash, mamlakatning xalqaro munosabatlarning to'laqonli sub'ekti sifatidagi o'zni va rolini yanada kuchaytirish hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakat iqtisodining barqaror va tez sur'atlar bilan o'sishi, uning ochiq demokratik davlat qurish yo'lidagi jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratish belgilanganligining o'zi ham respublikamizning tashqi siyosatida o'ziga xos ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning ta'kidlashicha, "O'tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o'zni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda Yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va

mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi. Birinchi navbatda, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarimizda yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar hal etildi. Chegaralar ochildi. Qo'shni – qo'shnisi bilan, aka – ukasi, ota – bolasi, qarindosh – qarindoshi bilan uzilib qolgan aloqalarni tiklab, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga emin-erkin borib kela boshladi"².

Bugungi kunda soha mutaxassislarining tahlillariga ko'ra Yangi O'zbekistonning tashqi siyosatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar nomoyon bo'lmoqda:

-davlatlararo va mintaqalararo siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar, ilmiy-texnikaviy va boshqa sohalarida xalqaro hamkorlikni izchillik bilan rivojlantirish;

-markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot zonasiga aylantirish, Afg'onistonda tinchlik, barqarorlik va milliy tiklanishga ko'maklashish;

-jahonning etakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish, O'zbekistonning savdo, iqtisodiy, texnologik, transport va boshqa aloqalarini kengaytirish;

-O'zbekistonning siyosiy va savdo-iqtisodiy sohadagi ishonchli, mas'uliyatli sherik sifatidagi xalqaro nufuzini mustahkamlash, mamlakatimizning tashqi dunyo uchun investitsion, sayyohlik, madaniy-tarixiy jozibadorligini kuchaytirish;

-milliy iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarni jalb etish jarayonlarini kuchaytirish uchun ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlik mexanizmlaridan foydalanish va ularni rivojlantirish;

-O'zbekistonning dunyoning yirik bozorlariga kafolatlari va maqsadlari, uning ustuvor va mintaqaviy yo'nalishlari, xususiyatlari negizida respublikaning milliy manfaatlari joy olgan. Har qanday siyosat aql-idrok bilan ish tutishni taqozo etadi. Rivojlanayotgan, tez taraqqiy etish uchun kuchli ilmiy, sanoat kuch-quvvatiga ega bo'lgan mamlakatning tashqi siyosati ehtiroslardan xoli bo'lishi lozim. Respublikamiz ana shunday davlatlar sirasiga kiradi. Yangi xalqaro siyosiy va iqtisodiy munosabatlar tartiboti uchun harakat qilish qoidalari O'zbekiston uchun ham diqqatga molik masaladir.

Har qanday ma'rifiy jamiyatda jahon hamjamiyati

1 Uzbekiston Respublikasi Prezidentining "Uzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish b'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. 2017 yil 7 fevral, ПФ-4947-сон. www.lex.uz

2 Yangi Uzbekiston demokratik u'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Uzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi Uzbekiston" gazetasi bosh muharriri savollarga javoblari. www.president.uz. 17.08.2021

va global dunyoga yo'l bag'rikenglik va insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Yangi O'zbekiston o'zining jahonda ochiq va hamjihatlikka asoslangan do'stona tashqi siyosatida o'zi munosabatlarga kirishayotgan davlatlarning milliy manfaatlarini hurmat qilgan holda yondoshuvlarni amalga oshirmoqda. Bu asrlar davomida o'zbek xalqining boshqa davlatlarga nisbatan o'zaro hurmat va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan an'alariga to'la mos keladi. Zamonaviy taraqqiyotga oid ehtiyojlar jahon va mintaqaviy sahnalarda milliy manfaatlarining yuksalishi va jozibadorligini kuchaytiradi.

Jahon hamjamiyatida mamlakat manfaatlarini mustahkamlash, bu zaruriy ehtiyojdir. Mazkur ehtiyojlar birinchi galda O'zbekistonning muayyan jug'rofiy va tabiiy, iqlimiy, demografik holati, xalqimizning tarixiy va madaniy merosi, inson resurslari, ma'naviyat omili, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti, xom ashyo va zamonaviy texnologiya bilan ta'minlanganlik darajalari bilan o'lchanadi. Ta'kidlanganidek, "Inson huquqlari himoyasini kafolatlash, aholi turmush darajasini oshirish, iqtisodiy faoliyatda erkinlikni ta'minlash, sud-huquq sohasidagi moddiy va protsessual normalarni takomillashtirishga qaratilgan islohotlar mamlakatimizning xalqaro reyting va indekslardagi ko'rsatkichlari oshishiga sabab bo'lmoqda"³.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga iqtisodiy integratsiyalashuvini ta'minlashda Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar bilan hamkorlik ijobiy samara bermoqda. O'zbekiston xalq xo'jaligidagi aniq loyihalarga sarflanayotgan xorijiy sarmoyalar miqdori yildan yilga ortib borayapti. R.Mahmudovning ta'kidlashicha, "O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosatida yangi qadam mamlakatning xalqaro moliya, savdo va iqtisodiy makonga yanada faol va chuqurroq integratsiyalashuvi jarayonining kuchayishidir. O'zbekiston tarixda birinchi marta S&P, Moody's va Fitch katta uchligi suveren reytingini qo'lga qo'lga kiritdi"⁴.

Markaziy Osiyo mintaqasida O'zbekistonning azaliy yaqin qardoshlik rishtalarini tiklashga asoslangan muhim o'zaro hamkorlik hatti-harakatlari evaziga jahon siyosatshunosligida "Markaziy Osiyo ruhi" degan ibora paydo bo'ldi. 2021 yil 15-16 iyul kunlari Toshkent shahrida "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiya, 2021 yil 5-6 avgust kunlari Turkmanistonda Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvi bo'lib o'tishi mintaqalararo integratsiya va o'zaro hamkorlikni mustahkamlamoqda. Mazkur anjumanlarning o'ziga xosligi shundaki, bu jarayonni tashkil etishga O'zbekiston bevosita tashabbuskor bo'ldi.

Shu o'rinda alohida qayd etish lozimki mamlakatimizning tashqi siyosatdagi tashabbusi orqali jahon hamjamiyati muhim hujjatlari qabul qilinmoqda. Ekspertlarning ta'kidlashlaricha, "Markaziy Osiyodagi ijobiy o'zgarishlar mintaqani jahon hamjamiyatida o'rni va nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Birinchi navbatda, bunga misol sifatida O'zbekiston tashabbusi bilan ilk marotaba BMTda "Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta'minlash bo'yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash" rezolyusiyasi qabul qilinganligini keltirib o'tsak bo'ladi"⁵.

Yangi O'zbekiston tashqi siyosiy yo'nalishining ilg'or qadamlaridan biri Afg'onistondagi barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shishdir. O'zbekiston va Afg'oniston ikki tomonlama aloqalarini kengaytirish bo'yicha katta istiqbollar mavjud. Jumladan, Surxon — Puli-Xumri elektr uzatish liniyasi va Mozori-Sharif — Hirot temir yo'l qurilishi yirik loyihalarini amalga oshirish bo'yicha rejalar belgilangan. Termizda

Afg'oniston fuqarolari uchun Ta'lim markazi faoliyat ochildan. Afg'onistonlik ko'plab talabalar ushbu Ta'lim markazini bitirib, bakalavr diplomlarini olgan, qisqa muddatli kurslarni tamomlagan. Toshkent Afg'oniston bo'yicha yuqori darajali "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va regional o'zaro munosabat" xalqaro konferensiyasining tashabbuschisi bo'ldi va uni o'tkazdi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat to'g'risidagi Konsepsiyasida "Markaziy Osiyo muammolarining tashqi kuchlar aralashuviz mintaqadagi davlatlarning o'zlariga tomonidan echilishi zarur"⁶, deb alohida belgilab qo'yilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, mazkur tamoyil o'ta prinsipial ahamiyatga ega bo'lib, O'zbekistonning mintaqamizdagi mavjud dolzarb miqyosdagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy ekologik va boshqa turdagi muammolarni o'zaro ehtiyoj va manfaatlarini inobatga olgan holda, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari bo'yicha hal etilishini tarafdori bo'lib qolishini bildiradi.

O'zbekiston bugungi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Parlamentlararo Ittifoq, Yevropa Ittifoqi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, jahon hamjamiyatida o'ziga xos nufuzga ega bo'lib bormoqda, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan integratsiya jarayonlari mustahkamlanmoqda. Mamlakatimiz Evroosiyo iqtisodiy hamkorlik ittifoqi huzurida kuzatuvchi maqomini oldi. O'zbekiston o'z tarixida birinchi marta BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylandi. Ma'lumki, O'zbekiston 2021-2022 yillarda Shanxay hamkorlik tashkilotiga raislik qiladi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tashqi siyosat jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholanmoqda. Masalan, AQSh Gudzon instituti Harbiy-siyosiy tadqiqotlar markazi direktori Richard Vays, O'zbekistonning tashqi siyosiy tashabbuslari butun Markaziy Osiyo uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda, deb ta'kidladi. Rim geosiyosiy tadqiqotlar instituti (ISAG) Evrosiyo dasturi ilmiy xodimi Fabrissi Vielmini qayd etishicha, ancha davrda mintaqaviy jarayonlardan chetda bo'lib kelgan O'zbekiston bugungi kunda yangicha harakat qilmoqda. Dunyodagi eng obro'li jurnallardan biri — «Economist» (Buyuk Britaniya) O'zbekistonni islohotlar eng jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan davlat sifatida e'tirof qildi.

O'zbekiston butun dunyo ko'z o'ngida tashqi siyosiy va madaniy aloqalarining boy tarixiga ega bo'lgan, mustaqil ravishda zamonaviy diplomatik aloqalarni amalga oshirayotgan tinchliksevar huquqiy davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro huquq jihatidan O'zbekiston uchun asrlar osha buyuk bo'lib kelgan davlatlar ham, davlatchilik tarixi biznikiga o'xshash yosh mamlakatlar ham bab-baravardir. Xalqimizning ma'naviy salohiyati, mamlakatning tabiiy, texnik va texnologik imkoniyatlari, xalqaro aloqalarni yanada mustahkamlab, demokratik taraqqiyot uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni yaratadi. Natijada mamlakatimiz amalda xalqaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarda mustahkam o'ringa ega bo'ladi.

Xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilgan demokratik qadriyatlar, xalqaro huquq asosida o'z tashqi siyosatini yuritish, munosabatlarda kuch ishlatmasdan muzokaralar yordamida muammolarni hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralmashmaslik va davlatlarning suvereniteti hududiy yaxlitligini hurmat qilish muhim ahamiyatga egadir. Zotan, yangi O'zbekiston jahon hamjamiyatida yuqoridagi qadriyatlar asosida o'zining munosib o'rnini ta'minlamoqda.

3 Ўзбекистон республикасининг халқаро рейтинг ва индекслардаги ўрнини яхшилаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотларида улар билан тизимли ишлашнинг янги механизмини жорий қилиш тўғрисида. ПФ-6003. 2020 йил 2 июнь. <https://lex.uz/docs/4838762>

4 Махмудов Р. Внешняя политика современного Узбекистана. Центральная азия в глобальном мире. <https://www.imemo.ru/central-asia-in-the-global-world.15.01.202>.

5 Неъматов А., Саломов А. Ўзбекистоннинг минтақадаги янги ташқи сиёсати. <https://yuz.uz/news/ozbekistonning-mintaqadagi-yangi-tashqi-siyosati>. 09.12.2020.

6 Ўзбекистон Республикасининг ташқи сиёсий фаолият Концепцияси. 2012 йил 10 сентябрь. УРҚ-330. www.lex.uz

7 Қодиров А. Янгиланаётган Ўзбекистон ташқи сиёсатининг энг муҳим устивор йўналишлари. <https://xs.uz/uzkr/post/yangilanayotgan-ozbekiston-tashqi-siyosatining-eng-muhim-ustivor-jonalishlari>. 09.08.2020.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNING MILLAT HAYOTIDAGI O'RNI

Bobomurot Eshboyevich Toshboyev – dotsent, falsafa d. (PhD), Jizzax davlat pedgogika instituti

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalqi millat sifatida shakllanishning yangi bosqichiga ko'tarilishida va millat mentalitetini takomillashtirishda milliy o'zlikni anglashning o'rnini haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, milliy o'zlikni anglashdagi muhim komponentlar tahlil qilinib uning strukturasi doir taklif ilgari surilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль национального самосознания в поднятии узбекского народа на новый этап становления как нации и улучшения менталитета нации. Также были проанализированы важные компоненты национального самосознания и выдвинуто предложение по его структуре.

Abstract: this article discusses the role of national self-awareness in raising the Uzbek people to a new stage of formation as a nation and improving the mentality of the nation. Also, important components in national self-awareness were analyzed and a proposal for its structure was put forward.

Kalit so'zlar: millat, xalq xarakteri, milliy xarakter, milliy jipslik, milliy mentalitet, milliy o'zlikni anglash, bozor iqtisodiyoti, inson ma'naviyati.

Ключевые слова: нация, народный характер, национальный характер, национальная принадлежность, национальный менталитет, национальное самосознание, рыночная экономика, духовность человека.

Keywords: nation, people's character, national character, National intimacy, national mentalitet, national self-awareness, market economy, human spirituality.

Mamlakatimiz milliy mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyin o'zbek xalqi millat sifatida shakllanishning yangi bosqichiga ko'tarildi. Mana shunday mas'uliyatli bir davrda davlatni dunyo tanigan mamlakatlar qatoriga olib chiqish uchun xalq xarakterini, undagi fazilatlar va illatlarni tadqiq etish lozim. Frantsuz ma'rifatparvari J.J. Russo ta'kidlaganidek, "Biz tayanishimiz kerak bo'lgan birinchi tamoyil – milliy xarakterdir, har bir xalq milliy xarakteriga ega bo'lishi lozim; xalqda u bo'lmagan taqdirda ishni unga bunday xarakter berishdan boshlash kerak bo'ladi"¹. O'ylashimizcha, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning "Harakatlar strategiyasi"²da belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xalqimiz milliy xarakteridagi fazilatlar ommalashtirish o'z o'rniga ega.

Agar millat o'z istiqboli rivojini anglab yetsa va kundalik turmushida unga amal qilib yashasa, el-yurt yuksaladi. Ammo dunyo taraqqiyoti va uning talablarini hisobga olmagan xalqlar faqat shu kunning tashvishlaridan tashqari chiqa olmaydilar². Jamiyatimizdagi ko'plab insonlar elim, yurtim deb kuyib yonib yashaydi. Bu holat albatta quvonarli. Lekin kishi dilini xira qiladigan holatlar va pesimistik kayfiyatdagi kishilar ham ko'zga tashlanib turadi. Bularning ayrimlari faqat bugunning g'ami bilan yashash, jamiyat va davlat manfaatlaridan o'z manfaatini ustun qo'yish, tanish bilishchilik, urug'-aymoqchilik, so'z va amal birligining buzilishi, mutaxassis kadrlarda chalasovodlik, talaba yoshlar psixologiyasida esa, faqat diplom olish uchun oliygohlarga kelib ketish kabi illatlar millat a'zolari o'rtasida milliy jipslikka ayniqsa, milliy mentalitetga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Taraqqiyot uchun eng avvalo millat ongidagi illatlarni bartaraf etishi va millat xarakterini bunyodkor g'oyalar asosida takomillashtirish kerak. Undan keyin esa, o'z oldimizga qo'ygan maqsadga erishish tezlashadi. Aks

holda islohotlar kutilgan natijani bermay faqatgina qog'ozda aks etib amalda natija bermasligi mumkin.

Bu kabi illatlarni bartaraf etish va milliy xarakterni to'laqonli shakllantirish uchun jamiyat a'zolari milliy o'zligini anglash darajasini yuksaltirish kerak.

Shuningdek bugungi kunda "Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortib bormoqda"³. Bu tahdid va xatarlar millat vakillarining ma'lum umummilliy maqsadlar yo'lida jipslashishi, birlashishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Millat ahlining ajralishga, bo'linishga moyilligi kuchayishi, millat ichida millatfurushlik, guruhbozlik, mahalliychilik kabi illatlar avj olishini keltirib chiqaradi.

Milliy o'zlikni anglashning rivojlanishi va takomillashib borishi, ob'ektiv jarayon hisoblanadi. U millatning "men"ligini belgilovchi muhim omildir. Undan mahrum bo'lgan millatning istiqboli ham bo'lmaydi. Uning vakillari ma'naviy qashshoq, manqurtga aylanadi.

Millat milliy o'zligini anglashi asnosida davlat taraqqiyoti uchun ijobiy samara bergan yutuqlar millat ichida yoyiladi va aksincha taraqqiyot uchun to'g'onoq bo'lgan salbiy illatlar bartaraf etiladi.

Milliy o'zlikni anglash muayyan etnik birlikka, milliy davlatga mansublikni, uning oldidagi burch va mas'uliyatni anglash, shu millatning moddiy va ma'naviy qadriyatlarini, manfaatlarini himoya qilishga va rivojlantirishga, milliy birlik va hamjihatlikni ta'minlashga yo'naltirilgan umumlashgan nazariy qarashlar hamda amaliy harakatlarning ifodasi hisoblanadi.

Millat o'rtasida hamjihatlikni ta'minlash hamda millat taraqqiyoti uchun nazariy qarashlar va amaliy harakatlarni ta'minlash murakkab jarayon hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglashning murakkabligini unda millat o'tmishi buguni va kelajagi uyg'unlashganligida ham ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda uni tashkil

1 Руссо Ж. Ж. Трактаты. –М.: 1969. -Стр. 268.

2 Alimardonov T. Milliy ruhiyatning axloqiy mohiyati //Jamiyat va boshqaruv. – T.: 2003. №4. 12-6.

3 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. 296- b.

qiluvchi komponentlarda ham bu jarayonni kuzatish mumkin.

Milliy o'zlikni anglash masalasi bilan shug'ullangan faylasuf olim S.Atamurodov milliy o'zlikni anglash tuzilmasiga "1. Etnik umumiylikni anglash va boshqa etnoslarning mavjudligini e'tirof etish; 2. Milliy qadriyatlar – til, ona yer, ma'naviyatga (keng ma'noda) sodiqlik; 3. Vatanparvarlik; 4. Milliy mustaqillikka va millatni rivojlantirishga intilish. 5. Milliy manfaatlarni anglash va uni himoya qilish salohiyati"⁴ kabi komponentlarni kiritadi. Boshqa ushbu masala bilan shug'ullangan tadqiqotchi Z.Xayitov e'tiroficha, milliy o'zlikni anglash tuzilmasiga: 1) hudud; 2) etnik birlikka mansublikni his qila bilish; 3) milliy qadriyatlarga sodiqlik (keng ma'noda); 4) milliy tilning amal qilishi; 5) milliy g'urur; 6) vatanparvarlik; 7) milliy davlatchilik ruhiyati; 8) tarixiy xotira; 9) milliy manfaatlarga sodiqlik⁵ kabilari kiradi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan millat nazariyasi bilan shug'ullangan olimlar fikrida qayd etilgan milliy o'zlikni anglashning tarkibiy elementlari haqidagi fikrlarini inkor etmagan holda milliy o'zlikni anglash tuzilmasiga: 1) millatga (etnosga) mansublikni anglash, 2) mazkur millatning insoniyat taraqqiyotidagi o'rnini anglash, 3) milliy qadriyatlarga sadoqat, 4) millat ehtiyojlari va manfaatlarini anglash, uning rivojlanish yo'llarini bilish, milliy birlikka vijdonan xizmat qilish, 5) milliy g'urur, 6) milliy xarakter, 7) milliy psixologiya, 8) milliy ong kabi ko'rinishda milliy ongni tashkil qiluvchi tarkibiy elementlarni joylashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu nuqtayi nazardan millat nazariyasiga yondashilsa bizningcha, bir butun millat tuzilmasini tashkil qiluvchi sistema paydo bo'ladi.

Yuqorida milliy o'zlikni anglash masalasi bilan shug'ullangan tadqiqotchi olimlarning fikrlarida ham yakdillik yo'q. Bu jihat ham masalaning o'ta murakkabligini anglatadi.

Milliy o'zlikni anglash jarayonida millat xarakteri ham qaror topib barqaror ko'rinish kasb etib boradi. Millat o'zini ob'ekt sifatida o'rganar ekan millatning yutuq va kamchiliklari birma-bir tahlil qilinadi. Masalan, o'zbek millati millat sifatida shakllanishning yangi bosqichida turgan ayni paytda millat psixologiyasi turli xil fikrlar bilan chulg'angan. Ko'pchilik fuqarolarimiz faqat bugunning g'ami "qorin tashvishi" bilan yashashga odatlanmoqda. Ertangi kun qanday bo'ladi? Kelajakda bizni nima kutmoqda? degan savollar haqida ular o'ylashmaydi yoki o'ylashni istashmaydi. Ayrim fuqarolarimiz esa, "bugun gashtingni surib qol, ertaga nima bo'ladi? Uni xudo biladi" saylida ish tutib pul ketidan quvib hamma narsani pulga ayirboshlashga tayyor turibdi. Bunday odamlar xaqida I.A.Karimov "Bozor iqtisodiyoti deb inson ma'naviyatini unutish gunoh bo'ladi. Nuqul pul va foyda ketidan quvsak-da ammo odamlarimiz ruhan

qashshoq bo'lib qolishsa – bunday jamiyatning hech kimga keragi yo'q"⁶, degan haqli fikrni aytgan edi.

Fuqarolar orasida jamiyatdan ko'proq olish, so'z va amalning birligiga rioya qilmaslik, va'dabozlik, qanday qilib bo'lmasin ishni tezroq bitirish, tovlamachilik, urug'-aymoqchilik kabi illatlarga berilgan kishilar mavjud. Eng achinarlisi, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Ma'naviy hayotimizda bo'shashish, bo'shliq sezilmoqda. Ma'naviy immuniteti zaif bo'lgan ba'zi yoshlar yurish-turishida ham, muomila-munosabatda ham begonalariga ko'r ko'rona ergashmoqda. Milliy o'zligimizni, buyuk ajdodlarimizni tanimaslik, ilm va irodaning yetarli emasligi bunga sabab bo'lmoqda, desak to'g'ri bo'ladi"⁷. Xalqimizda ko'p ishlatiladigan "qovun qovundan rang oladi" degan maqoldagiday yuqorida sanab o'tilgan illatlarni o'ziga yuqtirib olgan kimsalar biridan ikkinchisiga "ijtimoiy kasalliklar"ni yuqtirib jamiyatga yoyishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish uchun va fuqarolarimizning oldi-ortiga qarab ishlashlarini tartibga solish maqsadida hukumat tomonidan olib borilayotgan amaliy ishlar ham millat o'zligini anglashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birgalikda xalqimizning milliy o'zligini anglash darajasining holatini millat nomi bilan bajariladigan ishlarda ya'ni, "o'zbekchilik" deb atalayotgan harakatlarda ham kuzatish mumkin. Dunyodagi biror bir millat nomi yangraganda millatga xos xususiyatlar ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Achinarlisi bu faqat boshqa millat vakillariga nisbatan ishlatiluvchi hodisa hisoblanib qolmoqda. Har bir millat vakili boshqa millat xususida turlicha fikrga borishi mumkindir, lekin o'zi xaqida, o'z millati haqida gap ketganida, albatta, eng samimiy so'zlar bilan millatini yodga oladi. Millatining nomini qo'shib ishlatsa ham, eng yaxshi ishni bajargan paytda gapiradi. Bunga yetarlicha misollar bor. Bizda esa, ayrim paytlarda buning mutloqo teskarisi ham uchrab turadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, inson faqat jamiyatdagina shaxs sifatida kamolotga erishadi va ijtimoiy munosabatlar jarayonida takomillashadi. Shu bois hozirda ijtimoiy transformatsiya jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatimizda inson tarbiyasiga ta'sir qiladigan va millatning milliy o'zligini anglashga to'siq bo'ladigan illatlarga qarshi kurashish va uning oqibatlarini xalqqa tushuntirib berish ijtimoiy soha vakillarining asosiy vazifasi hisoblanishi kerak. Mana shunda tom ma'noda millat xarakteri ijobiy fazilatlar bilan bezaladi. Oqibatda esa, millat rivojlanishning umumiy maqsadini, manfaatlar hamda ehtiyojlarning mushtarakligini anglaydi va ularga erishish uchun hamjihatlikning zarurligini tushunib yetadi.

4 Atamurodov S.A. Национальная культура и национальное самосознание в процессе обновления, общества (социально-философский аспект): Дис. д-ра филос. наук. – Т.: 1992. – С.67.

5 Atamurodov S.A. Национальная культура и национальное самосознание в процессе обновления, общества (социально-философский аспект): Дис. д-ра филос. наук. – Т.: 1992. – С.67.

6 Karimov I. A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – Т.: O'zbekiston, 1996. 26-b.

7 Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Т.: O'zbekiston, 2021. 269- b.